Qandli diabet sharoitida taloq bezining gistostruktural o’zgarishlari.

lmiy adabiyotlar tahliliga ko‘ra, qandli diabet sharoitida taloq bezida bir qator muhim morfologik o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu o‘zgarishlar giperglikemiya, surunkali yallig‘lanish va oksidlovchi stress bilan bevosita bog‘liq. Taloqning har ikkala zonasi – oq va qizil pulpa ham ushbu patologik jarayonlardan zararlanadi.

Oq pulpa o‘zgarishlari:

Limfoid tugunchalarning hajmi kichrayadi,bu B-limfotsitlar ishlab chiqarilishi va immun javob kuchsizlanishini bildiradi;

Germinativ markazlar zaiflashadi yoki butunlay yo‘qoladi, bu immun tizimdagi proliferativ faollikning sustlashganidan darak beradi;

limfotsitlar zonasi siyraklashadi, T-hujayralar soni kamayadi, bu esa hujayraviy immunitetning pasayishiga olib keladi;

Apoptozga uchragan limfotsitlar soni oshadi, bu esa yallig‘lanish reaksiyalarining kuchayishiga xizmat qiladi.

Qizil pulpa o‘zgarishlari:

Sinusoid kapillyarlarning kengayishi va devorlarining yupqalashuvi kuzatiladi;

Makrofag va retikuloendotelial hujayralarning disfunktsiyasi qayd etiladi, bu fagotsitar faollikni pasaytiradi;

Qon elementlari filtrasiyasi buziladi, eritrotsitlar parchalanishi sekinlashadi;

Sklerotik o‘choqlar va gemorragik diapedeslar ko‘payadi.

Ushbu gistostruktural o‘zgarishlar taloqning normal immun va qon tozalovchi funksiyalarini buzadi. Bu esa diabetik bemorlarda immun yetishmovchilik holatlarini kuchaytiradi.

Morfofunksional o‘zgarishlarning klinik va immunologik oqibatlari.

Taloqdagi gistostruktural buzilishlar klinik jihatdan quyidagilarga olib keladi

Immun tanqislik holatlari – bakterial, virusli va zamburug‘li infektsiyalarga nisbatan sezuvchanlik ortadi;

Surunkali yallig‘lanishlar – diabetik angiopatiya, nefropatiya va boshqa asoratlarning rivojlanish xavfi ortadi;

Autoimmun reaksiyalar kuchayadi, bu esa diabetga hamroh bo‘lgan boshqa autoimmun kasalliklar (masalan, tireoidit, revmatoid artrit) rivojlanish ehtimolini oshiradi;

Oqsil sintezi va immunoglobulinlar ishlab chiqarilishi kamayadi, bu esa zaxiralovchi antitanalar darajasini pasaytiradi;

Qon zaxirasining zaiflashishi – bu taloqdagi eritrotsitlar, trombotsitlar va limfotsitlar resursining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, organizmning umumiy gomeostaziga zarar yetkazadi.Shuningdek, retikuloendotelial tizimning faoliyati izdan chiqishi bilan bog‘liq immun tanqislik holatlari kuzatilgan. Bu o‘zgarishlar klinik amaliyotda bemorlar immun holatini baholashda va immunokorreksiya usullarini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi.

Taloqdagi o‘zgarishlarning molekulyar-biokimyoviy asoslari

Qandli diabetda taloq bezining gistostruktura va funksiyalaridagi o‘zgarishlar faqat morfologik darajada emas, balki molekulyar va biokimyoviy bosqichlarda ham yuzaga keladi. Diabet bilan bog‘liq surunkali giperglikemiya holatida reaktiv kislorod turlari ning ortiqcha hosil bo‘lishi natijasida oksidlovchi stress kuchayadi. Bu esa hujayra membranasi komponentlari, DNK va oqsillarni shikastlaydi.Taloqdagi immun hujayralar (T- va B-limfotsitlar, makrofaglar) ushbu stressga juda sezuvchan bo‘lib, ularning proliferatsiyasi va funksional faolligi pasayadi. Shu bilan birga, NF-κB singari yallig‘lanishni faollashtiruvchi transkripsion omillar faollashadi, bu esa proinflamator sitokinlar ishlab chiqarilishini orttiradi.

Ushbu sitokinlar ta’sirida:

Limfoid to‘qimalarda atrofiya va degeneratsiya yuzaga keladi;

Taloqdagi sinusoid tomirlar endoteliysi shikastlanadi;

Hujayra o‘limi (apoptoz) kuchayadi;

Immun hujayralar migratsiyasi va muvofiqlashtirilgan faolligi buziladi.Bu esa taloqning immunogen javob qaytarish qobiliyatini sezilarli darajada susaytiradi.

Taloqdagi o‘zgarishlarning immunologik oqibatlari

Taloq immun tizimining markaziy “monitoring” a’zosi bo‘lib, unda antigenlar tan olinadi, zarur limfotsitlar shakllanadi va fagotsitar tozalash jarayonlari amalga oshiriladi. Qandli diabetda bu jarayonlar izdan chiqadi:

Antigen taqdim etuvchi hujayralarning soni kamayadi, bu esa immun javobning boshlanishini kechiktiradi;

T-limfotsitlar va B-limfotsitlar aktivatsiyasi sustlashadi, oqibatda antitana ishlab chiqarilishi kamayadi;

Makrofaglar faoliyati buziladi, bu esa fagotsitoz va infeksiyalarga qarshi kurashni zaiflashtiradi;

Sitotoksik T-hujayralar soni kamayadi, bu esa virusli infeksiyalarni aniqlash va yo‘q qilishni qiyinlashtiradi;

Taloqning immun nazorati susayadi, bu esa avtoimmun va yallig‘lanishli kasalliklarning kuchayishiga olib keladi.

Ko‘plab klinik kuzatuvlarda qandli diabetli bemorlarning bakterial va virusli infeksiyalarga nisbatan chidamliligi pastligi aniqlangan bo‘lib, buni aynan taloqdagi immun va morfologik buzilishlar bilan izohlash mumkin.

Diabet fonida taloqdagi angionevrotik va degenerativ jarayonlar Qandli diabetning yana bir muhim ta’siri — angiopatiya, ya’ni kichik qon tomirlarning buzilishi orqali amalga oshadi. Taloq tomirlarining devorlari ingichka va sezuvchan bo‘lgani sababli, diabet sharoitida:

Kapillyar va venula devorlari qalinlashadi, bu esa perfuziya yetishmovchiligiga olib keladi.

Sinusoidal tomirlar kengayadi, ba’zi joylarda mikroanevrizma va diapedetik qon quyilishlar yuzaga keladi;

Taloqning nerv elementlarida degeneratsiya boshlanadi, bu esa vegetativ regulyatsiya buzilishiga sabab bo‘ladi;

Fibroz va skleroz o‘choqlari paydo bo‘ladi, bu esa to‘qimaning funksional qismini almashtiradi.

Yuqoridagi jarayonlar taloqni nafaqat immun, balki gematologik jihatdan ham nofaol a’zoga aylantirib qo‘yadi. Oqsil sintezi, hujayra regeneratsiyasi va filtratsion faollikning izdan chiqishi organizmning umumiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Qandli diabet va taloq: klinik jihatdan amaliy ahamiyati

Taloqdagi o‘zgarishlar ko‘p hollarda klinik jihatdan yashirin kechadi. Ammo diabetga chalingan bemorlarda ushbu o’zgarishlar kuzatiladi:

Surunkali bronxit va pnevmoniyalarning ko‘payishi;

Yara va nekrotik jarayonlarning uzoq bitmasligi;

Virusli infeksiyalarning uzoq davom etishi;

Revmatik yoki avtoimmun sindromlar;

Shuningdek, limfotsitoz, limfopeniya, trombotsitopeniya kabi laborator ko‘rsatkichlar bevosita taloqdagi strukturaviy va funksional buzilishlar bilan bog‘liq bo‘ladi.Shu bois, diabetik bemorlarning umumiy ahvolini baholashda taloq bezining strukturasi va faoliyatiga e’tibor qaratish, zamonaviy diagnostik vositalar yordamida u yerda kechayotgan o‘zgarishlarni erta aniqlash muhim klinik ahamiyatga egadir.

Xulosa.Qandli diabet organizmning barcha hayotiy tizimlariga, jumladan, immun tizimining asosiy a’zolaridan biri bo‘lgan taloq beziga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Diabet sharoitida rivojlanadigan surunkali giperglikemiya, oksidlovchi stress, mikroangiopatiya va yallig‘lanish reaksiyalarining kuchayishi taloq to‘qimalarida chuqur morfologik va funksional o‘zgarishlarga olib keladi Ushbu o‘zgarishlar natijasida taloqning asosiy vazifalari — immunologik himoya, antigenlarga javob shakllantirish va fagotsitar tozalash jiddiy darajada izdan chiqadi.Diabet bilan bog‘liq bu kabi o‘zgarishlar bemorlarda infeksion kasalliklarga nisbatan sezuvchanlikni oshiradi, immun yetishmovchilik holatlari va surunkali yallig‘lanish jarayonlarini kuchaytiradi. Shu bois, qandli diabet kasalligini kompleks yondashuv asosida davolashda taloq bezining gistostruktura va funksional holatini o‘rganish va nazorat qilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.T

Foydalanilgan adabiyotlar:

Axmedov, A.X. (2020). Qandli diabet va limfoid organlar: gistostruktura va immunologik o‘zgarishlar. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.

Alimova, S.R., & Rasulov, M.T. (2021). Diabetda taloq bezining morfologik o‘zgarishlari. O‘zbekiston Biologiya Jurnali, 12(3), 45–53.

Azimov, F.S. (2019). Endokrinologiya va metabolik kasalliklar. Toshkent: Fan va

texnologiya.

Karimova, N.G. (2022). Qandli diabet va immun tizimining buzilishi. O‘zbekiston Tibbiyot Akademiyasi ilmiy ishlari, 18(2), 112–120.

Khasanov, D.J., & Yusupov, B.E. (2023). Diabetik angiopatiya va taloqdagi mikrosirkulyatsiya. Tibbiyot fanlari doktori dissertatsiyasi, Toshkent.

Mirzaev, M.A., & Tursunov, R.I. (2020). Taloq bezining yallig‘lanish va degeneratsion o‘zgarishlari. Journal of Experimental Biology and Medicine, 7(4), 234–241.

Niyozov, A.A. (2021). Gematologiya va immunologiya. Toshkent: Akademiya nashriyoti.

Rasulov, M.T., & Saidov, H.Q. (2022). Taloqdagi makrofaglar va diabetik disfunksiya. Immunologiya va allergiya, 14(1), 67–75.

Sharipov, M.J. (2023). Qandli diabetda limfotsitlarning apoptotik jarayonlari. Biomedicine & Clinical Research, 9(2), 89–97.

Sobirov, A.B. (2018). Immunologiya asoslari. Toshkent: Tibbiyot universiteti nashriyoti.

To‘lqinov, F.J., & Olimov, S.Z. (2020). Diabetda oksidlovchi stress va taloq bezining roli. Tibbiyot va biologiya yutuqlari, 5(3), 101–110.

Yuldashev, O.R., & Eshmatov, B.N. (2021). Qandli diabetda immun tizimining morfofunksional buzilishi. Endokrinologiya va metabolizm, 16(2), 57–64.

AGRAR SOHA KORXONALARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA DIVERSIFIKATSIYALASH STRATEGIYASI

Yusupova Dildora Turadjanovna

«Alfraganus University» NOTT

«Menejment i marketing» kafedrasi dotsenti

yusupovad1983@gmail.com

Аннотация: Мақолада агросаноат корхоналари фаолияти самарадаорлиги ошириш омили сифатида ишлаб чиқаришни диверсификациялаш масалалари кўриб чиқилган. Агросаноат корхоналарида диверсификациялашнинг ўзига хос жиҳатлари асослаб берилган, ҳамда қишлоқ хўжалик корхоналари фаолиятини диверсификациялаш стратегиясининг асосий йўналишлари шакллантирилган.

Калит сўзлар: диверсификация, қишлоқ хўжалиги, стратегия, бошқарув, интеграциялаштириш салоҳияти, интеграциялашувни ривожлантириш йўналишлари, интеграциялаштириш модели.

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы диверсификации производства, как фактор повышения эффективности предприятий аграрной промышленности. Обоснованы специфические аспекты диверсификации на предприятиях аграрной промышленности и сформированы основные направления стратегии диверсификации предприятий сельского хозяйства.

Ключевые слова: диверсификация, сельское хозяйство, стратегия, управление, потенциал интеграции, направления развития интеграции, модель интеграции.

Annotation: Considered the issues related to the divestment as a process of increasing the economic efficiency of enterprises. Features of diversification in agricultural production. Formulated alternative strategies of diversification of agricultural enterprises.

Keywords: a diversification, agriculture, strategy, management, economic efficiency. integration potential; directions of development integration; integration model.

Respublikamiz agrar sohasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichidagi muhim xususiyatlaridan biri – sohaga ilmiy sig‘imi yuqori bo‘lgan, resurstejamkor, innovatsion g‘oya va fan yuutuqlariga asoslangan ishlab chiqarishning kirib kelishi hisoblanadi.

Bu o‘z navbatida milliy iqtisodiyotimiz barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladigan

agrar soha tarmoq tuzilishini shakllantirishi bilan birga, sohadagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida raqobatni kuchaytirib, ularning nafaqat ichki bozorlarda balki tashqi bozorlarda ham raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlamoqda.

Darhaqiqat, mahsulot va resurslar bozorida raqobat kuchaygan sari aksariyat qishloq xo‘jalik korxonalari uchun qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni takomillashtirish, qayta ishlash korxonalari ehtiyojidan kelib chiqqan holda, assortiment hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlari bozori konyukturasini kengaytirishning ahamiyati ortib boradi. Bu o‘z navbatida, istiqbolda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetkazib beruvchilar va qayta ishlash korxonalarining o‘zaro birgalikdagi faoliyatini olib borish hamda hamkorlikni amalga oshirishning yangi samarali mexanizmini ishlab chiqish va uni joriy etishni zaruriyatga aylantiradi.

Bunday sharoitda xo‘jalik subyektlari xo‘jaliknig uzluksiz rivojlanishni ta’minlash maqsadida, bir tomondan o‘zlarining uzoq muddatli strategik rejalarini tuzib olishlari lozim bo‘lsa, ikkinchi tomondan, esa ular korxonadagi mavjud ishlab chiqarish ixtisoslashuviga muqobil yo‘llarni izlashlari kerak bo‘ladi. Istiqbolli rejalashtirishning strategik muqobillaridan biri diversifikatsiya hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash – bu korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentini kengaytirish, mahsulot turini o‘zgartirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiy jihatdan foydaga erishish, inqirozning oldini olish maqsadida ishlab chiqarishning yangi turlarini o‘zlashtirishdir.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash ko‘pincha mahsulot va xizmatlar sifatining oshirilishiga olib keladi. Chunki, ishlab chiqaruvchining mahsulot yangi turlarini o‘zlashtirish bilan bir qatorda ularning iste’mol xususiyatlarini yaxshilashga intilishi pirovardida, sifat darajasining o‘sishini ta’minlaydi. Bu esa, mazkur mahsulotni sotish hajmining ko‘payishi bilan birga ularni sotish bozorlarining kengayishiga ta’sir ko‘rsatadi[1].

Diversifikatsiya bir turdagi mahsulotni ommoviy ishlab chiqarish samarasini, turli mahsulotlar ishlab chiqarish orqali o‘sish strategiyasini amalga oshirish hisobiga siqib chiqardi. Turli mahsulotlar ishlab chiqarish samarasining mohiyati shundaki, ko‘p turdagi mahsulotlarni bitta yirik korxonada ishlab chiqarishga nisbatan shu turdagi mahsulotlarni katta bo‘lmagan ixtisoslashgan korxonalarda ishlab chiqarish foydaliroqdir.

Diversifikatsiyalashning asosiy maqsadi bir nechta tarmoqda faoliyat olib borish hisobiga foydani oshirish hamda risk darajasini kamaytirish hisoblanadi. Diversifikatsiyalashgan korxonalar raqobat kurashida barqarorroq bo‘lib, ularda konyuktura, tuzilmaviy hamda sikl o‘zgarishlari hisobiga yuzaga keladigan risk darajasi pastroq bo‘ladi.

Diversifikatsiyalash xo‘jalik subyektlarini rivojlantirishning umumqabul qilingan zaruriy usullaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar bilan ushbu mahsulotlarni qayta ishlovchilar o‘rtasidagi faoliyatni yo‘lga qo‘yishning yangi mexanizmlarini yaratish zaruriyati, mavjud ishlab chiqarishni optimallashtirish va

qayta ishlash korxonalari talablaridan kelib chiqqan holda, yangi ishlab chiqarishlarni joriy etish zaruriyati bilan uyg‘unlashib borayotganligi bois, agrar soha korxonalarini diversifikatsiyalashning dolzarbligi yanada ortib bormoqda.

Fikrimizcha, agrar sohada diversifikatsiyalash dasturiy tadbirlarini shakllantirish va amalga oshirish to‘g‘risida qaror qabul qilishda, qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyat va jihatlarini e’tiborga olish maqsadga muvofiq:

- ishlab chiqarishning mavsumiylik xarakterdaligi;

- biologik va iqtisodiy jarayonlarning qo‘shilib ketishi;

- yerning ishlab chiqarish vositasi sifatida qaralishi va boshqalar.

Aynan, mana shu o‘ziga xoslik qishloq xo‘jaligi korxonalarining ish faoliyati natijalari va uning iqtisodiy samaradorligiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash jarayoni uzoq muddatli istiqbolda korxonaning iqtisodiy va moliyaviy jihatdan yuksalishiga olib kelsada, ahamiyatli darajadagi sarf-xarajatlarni taqozo etishi sababli joriy natijalarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa korxona faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan turli iqtisodiy subyektlarning manfaatlariga ham turlicha ta’sir ko‘rsatadi[1].

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, bugungi kunda integratsiyalashgan tizimlarni shakllantirish, ular faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishga quyidagi omillar to‘sqinlik qilmoqda:

- qishloq xo‘jaligiga nisbatan qayta ishlash sanoatida ijtimoiy mehnat unumdorligi darajasining birmuncha yuqori darajada ekanligi;

- agrosanoat majmuiga kiruvchi aksariyat korxonalarda integratsiyalashgan tuzilmalarni yaratishga bo‘lgan manfaatdorlikning birmuncha sust rivojlanayotganligi;

- integratsiyalashgan tuzilmalarni shakllantirish va ular faoliyatini tashkil etish sohasida huquqiy bazaning takomillashmaganligi;

- tarmoqning va hududning o‘ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda, agrosanoat integratsiyasi shaklini tanlashga imkon beradigan ilmiy asoslangan uslubiyotni takomillashtirishga bo‘lgan zaruriyat;

- agrosanoat majmuasi korxonalari moliyaviy holatining qoniqarli darajada emasligi va ko‘pchilik qishloq xo‘jalik tashkilotlarining to‘lov qobiliyatining korxonada kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun moliyaviy imkoniyatlarining cheklanganligi;

- qishloq xo‘jalik va qayta ishlash korxonalari moddiy-texnikaviy salohiyatining pastligi boshqalar.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash iqtisodiy samaradorligini hisoblashda quyidagilarni e’tiborga olish zarur:

- divesifikatsiya natijasida olingan qo‘shimcha daromad;

- ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash hisobigan mahsulot bozoridagi infohratuzilma xizmatlaridan foydalanish imkoniyatining oshganligi;

- xizmatlardan foydalanish ko‘lamining oshganligi va tovar mahsulot sotish hajmining oshganligi bois, xarajatlarning qisqarishi, tannarxining pasayishi;

- yangi mahsulot ishlab chiqarishni o‘zlashtirilishi va bunga mos ravishda innovatsion texnologiyalarning kirib kelishining kuchayishi va boshqalar;

Diversifikatsiyalash strategiyasini qo‘llash har doim ham qishloq xo‘jaligi korxonalariga muvaffaqiyat keltirmaydi, shu boisdan ham rahbariyat doimiy ravishda uni qo‘llashning oqibatlarini tahlil qilib borishi, agar faoliyat samarasiz bo‘lsa, faoliyat yo‘nalishiga tegishli o‘zgartirishlar kiritishi kerak.

Bunday holatda rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslanib, quyidagi muqobil strategiyalar taklif etilishi mumkin:

- yangi tarmoqlarda mavqega ega bo‘lish yoki diversifikatsiyalashgan faoliyat yo‘nalishlaridagi mavqeni mustahkamlash maqsadida boshqa tarmoqlarga kirib borish yoki yangi vositalarga egalik qilish;

- korxonaning iqtisodiy strategiyasiga javob bermayotgan faoliyat yo‘nalishlaridan voz kechish;

- diversifikatsiya bazasini qisqartirish, jumladan, kuchsiz yo‘nalishlarni yo‘q qilish yo‘li bilan;

- samaradolik darajasi past bo‘lgan, foyda keltirmayotgan, shuningdek, zarar keltirayotgan bo‘linmalar faoliyatini to‘xtatish hamda ishlab chiqarish yo‘nalishlarini yopish[2].

Xulosa qiladigan bo‘lsak, qishloq xo‘jalik korxonalari faoliyatini diversifikatsiyalash strategiyasini tanlash ularning ichki hamda tashqi iqtisodiy muhiti salohiyati bilan aniqlanadi. Qishloq xo‘jalik korxonalari faoliyatini diversifikatsiyalash strategiyasini tanlashning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmi o‘z ichiga strategik ko‘ra bilishlikni, uning ichki va tashqi muammolarini tarkiblashni, missiyasi va maqsadlarini shakllantirishni, strategik tahlil qilishni, strategik muqobillarni aniqlashni, strategiyani tanlashni, uning bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatishni hamda samaradorligini aniqlashni o‘z ichiga oladi.

Yuqorida bildirilgan uslubiy yondashuv va amaliy tavsiyalarni amaliyotga qo‘llash respublikamiz agrar soha va tarmoqlari korxonalari samaradorligini diversifikatsiyalash strategiyasi asosida oshirishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Yusupova D.T. Biznes jarayonlarni boshqarishning nazariy asoslari/ Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Ilmiy elektron jurnal // maxsus son, 2024 yil, 491-493 betlar. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2. N.Q.Yuldoshev, D.T.Yusupova. Biznes ijrosi va strategiyasi. Darslik. T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» , 2022 - 280b.

“PSIHO-ENDOKRINOLOGIK O’ZGARISHLARNING O’SMIRLAR RUHIY SALOMATLIGIGA TASIRI”

Ahmadova Mubinabonu Oybek qizi

Toshkent Davlat Tibbiyot Universititeti Pediatriya fakulteti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Maqolada o‘smirlik (pubertat) davrida endokrin tizimda kechuvchi gormonal o‘zgarishlarning o‘smirlar ruhiy salomatligiga ta’siri ilmiy tahlil qilinadi. Gormonlarning — xususan estrogen, testosteron, kortizol, dopamin va serotonin darajalarining — kayfiyat, o‘zini baholash va ijtimoiy xulqqa ta’siri ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda o‘smirlik davrida kuzatiladigan psixologik beqarorlik, stressga moyillik, o‘z tanasini qabul qilmaslik kabi holatlar gormonal o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liqligi yoritilgan. Maqolada psixo-endokrinologik yondashuvning pediatriya amaliyotidagi ahamiyati va o‘smirlar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun amaliy tavsiyalar keltiriladi.

KALIT SO‘ZLAR: pubertat, gormonlar, psixo-endokrinologiya, o‘smirlik davri, ruhiy salomatlik, stress, o‘zini baholash.

O‘smirlik (pubertat) davri inson hayotidagi eng murakkab fiziologik va psixologik bosqichlardan biridir. Bu davrda endokrin tizimning faoliyati kuchayib, jinsiy bezlar, gipofiz va gipotalamus o‘rtasidagi gormonal muvofiqlashuv tizimi faol ishlay boshlaydi. Ushbu jarayon natijasida estrogen, testosteron, kortizol, dopamin va serotonin kabi biologik faol moddalar darajasi o‘zgaradi. Aynan shu gormonlar o‘smirning nafaqat jismoniy rivojlanishida, balki uning hissiy holati, kayfiyati, o‘zini baholashi va ijtimoiy xulqida ham muhim rol o‘ynaydi. Pubertat davri o‘smirning o‘zini kashf etish, shaxsiy “men”ini shakllantirish va ijtimoiy muhitda o‘rnini topish jarayoni bilan kechadi. Shu sababli gormonal o‘zgarishlar bilan bir paytda kechuvchi psixologik beqarorlik — tabiiy, ammo nozik holatdir. Agar bu jarayon nazoratdan chiqsa yoki tashqi omillar (stress, oilaviy muhit, ijtimoiy bosim) bilan kuchaysa, ruhiy salomatlik buzilishlariga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, psixo-endokrinologik tahlil o‘smirlik davrini chuqurroq tushunish uchun muhim ilmiy yondashuv hisoblanadi.

Pubertat jarayonida gormonlar markaziy asab tizimining faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Gormonlar va neyrotransmitterlar o‘rtasida kuchli o‘zaro aloqadorlik mavjud: masalan, testosteron va estrogen miqdorining o‘zgarishi serotonin va dopamin almashinuvi bilan chambarchas bog‘liq. Bu esa o‘smirning kayfiyat barqarorligi, moti-

vatsiyasi va o‘zini baholash darajasiga bevosita ta’sir qiladi.

Estrogen qizlarda hissiy barqarorlik va empatiya bilan bog‘liq bo‘lsa-da, uning keskin ko‘tarilishi yoki pasayishi tez-tez kayfiyat o‘zgarishlari, yig‘loqilik, o‘ziga ishonchsizlik va tashvish hissini keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, estrogen miyada serotonin ishlab chiqilishini rag‘batlantiradi, bu esa qisqa muddatli eforiya, ammo uzoq muddatda hissiy charchoqqa olib kelishi mumkin.

Testosteron o‘g‘il bolalarda mustaqillik hissi, o‘zini himoya qilish instinkti va raqobatga moyillikni oshiradi. Biroq bu gormonning haddan tashqari ko‘payishi agressivlik, impulsiv xatti-harakat va konfliktlarga moyillikni kuchaytiradi. Aksincha, testosteron darajasining pastligi o‘smirda o‘ziga ishonchsizlik, ijtimoiy chekinish va depressiv holatlarni yuzaga keltiradi.

Kortizol – stress gormoni sifatida tanilgan bo‘lib, o‘smirlik davrida uning o‘zgarishlari ayniqsa sezilarli. Haddan ortiq kortizol darajasi uyqusizlik, diqqat susayishi va hissiy toliqish holatini chaqiradi. Agar o‘smirda ijtimoiy qo‘rquv yoki oilaviy ziddiyatlar mavjud bo‘lsa, kortizol sekretsiyasi ortib, bu ruhiy beqarorlikni kuchaytiradi.

Dopamin va serotonin — “baxt gormonlari” sifatida tanilgan neyrotransmitterlar — o‘smirlik davrida motivatsiya, ijtimoiy faollik va o‘zini qabul qilish hissini boshqaradi. Biroq gormonal o‘zgarishlar davrida ularning muvozanati buzilishi, o‘smirda hissiy keskinlik, sababsiz xavotir yoki tez charchash kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Bu jarayonlarning barchasi psixo-endokrin muvozanat tushunchasini yuzaga keltiradi. Ya’ni, gormonlar va ruhiy holat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir ikki tomonlama kechadi: gormonlar psixologik holatni o‘zgartirsa, stress va hissiy bosim ham gormonal faoliyatga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘smirlikda uzoq davom etgan psixologik stress gipotalamus-gipofiz-buyrak usti o‘qi faoliyatini buzib, kortizol ishlab chiqilishini oshiradi; bu esa, o‘z navbatida, immun tizim va asab tizimining muvozanatini buzadi.Ijtimoiy muhit ham bu jarayonlarda muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda o‘smirlar o‘z tengdoshlari bilan ijtimoiy tarmoqlarda taqqoslanadi, ideal tashqi ko‘rinish me’yorlariga mos kelmaslik ularda psixologik noqulaylik tug‘diradi. Ayniqsa, qizlarda estrogenning o‘zgaruvchanligi fonida o‘z tanasidan qoniqmaslik kuchayadi, bu esa o‘zini past baholash va depressiyaga moyillikni oshiradi.Shu bois, pubertat davrida ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash faqat psixologik yondashuv bilan emas, balki endokrin mexanizmlarni ham inobatga olgan holda amalga oshirilishi zarur. Shifokor, psixolog va ota-ona hamkorligida o‘smirning fiziologik o‘zgarishlariga mos psixologik yordam ko‘rsatilsa, bu jarayon tabiiy, og‘riqsiz va barqaror kechadi.

Xulosa qilib aytganda, Pubertat davri — bu faqat fiziologik o‘zgarishlar bosqichi emas, balki inson ruhiyati, o‘zini anglash va shaxs sifatida shakllanish davridir. Aynan shu paytda gormonal muvozanatdagi eng kichik o‘zgarish ham o‘smirning hissiy holati, fikrlashi va xulqida sezilarli aks etadi. Shu sababli bu davrni to‘g‘ri tushunish,

o‘smirni faqat “kayfiyati o‘zgaruvchan” deb baholamasdan, balki undagi har bir hissiy tebranish ortida fiziologik mexanizmlar borligini anglash juda muhimdir.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, endokrin tizimdagi har bir o‘zgarish ruhiy salomatlikka bevosita ta’sir qiladi. Estrogen va testosteronning notekis sekretsiyasi, kortizolning ortishi yoki dopaminning pasayishi — bularning barchasi o‘smir kayfiyati, o‘zini baholashi va hayotga qarashiga ta’sir etuvchi asosiy omillardir. Demak, ruhiy barqarorlik — bu nafaqat psixologik, balki fiziologik muvozanatni ham talab qiladigan holatdir.Bugungi kunda tibbiyot shunchaki kasallikni davolash bilan cheklanmasligi, balki insonning ruhiy va gormonal uyg‘unligini ta’minlashga ham e’tibor qaratishi kerak. Chunki har bir o‘smir — bu kelajakdagi yetuk shaxs, va u sog‘lom, barqaror psixika bilan voyaga yetishi uchun tibbiy, ijtimoiy va oilaviy qo‘llab-quvvatlov zarur.

Menimcha, eng muhim narsa — bu davrni “muammo” deb emas, balki inson rivojlanishidagi tabiiy bosqich deb qabul qilishdir. To‘g‘ri yondashuv, sabr va tushunish orqali o‘smir o‘zini anglashni, his-tuyg‘ularini boshqarishni o‘rganadi. Va aynan shunda pubertat davridagi gormonal o‘zgarishlar insonning yetuk, mustahkam va ruhiy jihatdan sog‘lom shaxsga aylanishida poydevor vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Tibbiy fiziologiya. – Toshkent: Ibn Sino nashriyoti, 2021.

2. Sherwood L. Inson fiziologiyasi: hujayradan tizimlargacha. 2022.

3. Sadock B.J., Sadock V.A., Ruiz P. Kaplan va Sadock psixiatriyasi asoslari 2022.

4. Nelson R.J. Behavioral Endocrinology. – Sunderland, MA: Sinauer Associates, 2020.

5. Carlson N.R. Physiology of Behavior. – New York: Pearson, 2020.

6. Qodirova N., Eshonqulova M. Endokrin tizim kasalliklari. – Toshkent: TTA nashriyoti, 2021.

PEDIATRIYADA SUN'IY INTELEKTNING DOLZARBLIGI

Xudoyberdiyeva Rayhona Abbos qizi

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada pediatriyada sun'iy intellektning (SI) roli va ahamiyati keng tahlil qilinadi. Tadqiqotlarda SI turlari (Mashinalarni o'rganish, Chuqur o'rganish, Kompyuter ko'rish, NLP va chat-botlar) va ularning bolalar sog'lig'ini saqlashdagi amaliy qo'llanilishi misollar bilan keltirilgan. Shuningdek, maqolada SI afzalliklari, kamchiliklari, O'zbekistonda pediatriyada joriy etilishi va xorijiy mamlakatlar bilan taqqoslash ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar:Sun'iy intellekt, pediatriya, mashinalarni o'rganish, chuqur o'rganish, kompyuter ko'rish, NLP, chat-bot, diagnostika, O'zbekiston, xorijiy tajriba.

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the role and significance of artificial intelligence (AI) in pediatrics. The study presents examples of AI types (Machine Learning, Deep Learning, Computer Vision, NLP, and chatbots) and their practical applications in child healthcare. Furthermore, the article examines the advantages and limitations of AI, its implementation in Uzbekistan, and compares it with international practices.

Keywords:Artificial Intelligence, Pediatrics, Machine Learning, Deep Learning, Computer Vision, NLP, Chatbot, Diagnosis, Uzbekistan, International Experience.

Аннотация:

В данной статье проводится всесторонний анализ роли и значимости искусственного интеллекта (ИИ) в педиатрии. Приведены примеры типов ИИ (машинное обучение, глубокое обучение, компьютерное зрение, обработка естественного языка и чат-боты) и их практическое применение в детском здравоохранении. Также рассматриваются преимущества и ограничения ИИ, его внедрение в Узбекистане и сравнение с международным опытом.

Ключевые слова:Искусственный интеллект, педиатрия, машинное обучение, глубокое обучение, компьютерное зрение, обработка естественного языка, чат-бот, диагностика, Узбекистан, международный опыт.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) tibbiyotning eng muhim texnologik yo‘nalishlaridan biriga aylandi. U dastlab tasvirlarni tahlil qilish va tadqiqotlarda qo‘llanilgan bo‘lsa, hozirda diagnostika, davolash jarayonlarini optimallashtirish, individual terapiya rejalashtirish va pediatriyada profilaktik choralarni ishlab chiqishda keng qo‘llanilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO, 2023) ma’lumotlariga ko‘ra, SI texnologiyalari yordamida diagnostik aniqlik 25–40% ga oshgan, bu ayniqsa bolalar tibbiyotida muhimdir. Tibbiyotdagi sun’iy intellektning umumiy roli haqida ingliz tadqiqotchilari (Hinton & LeCun, 2022; Stanford Medicine AI Initiative, 2023) ta’kidlaganidek, quyidagi asosiy ustunliklari bor:

Klinik tasvirlarni tahlil qilishda inson xatosini kamaytirish.

Kasalliklarning erta bosqichini aniqlash.

Individual terapiya rejalarini ishlab chiqish.

Telemeditsina va masofaviy diagnostika imkoniyatlarini yaratish.

Masalan, Johns Hopkins Medicine (2023) tadqiqotida yurak yetishmovchiligi va diabetni erta aniqlash algoritmi 92% aniqlik ko‘rsatgan. Cambridge University Medical AI Lab (2022) esa pediatriyada o‘pka va yurak kasalliklarini aniqlashda SI modelining inson shifokoriga nisbatan 18% samaraliroq ishlashini ko‘rsatgan.

Pediatriya — bolalar organizmining o‘ziga xosligi sababli murakkab soha. Shu bois SI tizimlari quyidagicha yordam beradi:

Harvard Medical School (2023): SI algoritmlari chaqaloqlarda pnevmoniyani aniqlashni 3 soniyada bajaradi, shifokor uchun esa bu jarayon 15 daqiqa davom etadi.

Boston Children’s Hospital (2024): SI yordamida 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarda autizm spektr buzilishlarini 89% aniqlik bilan tashxis qilish imkoniyati yaratilgan.

German Pediatric AI Consortium (Berlin, 2023): KinderMedAI tizimi 12 ming bolalarning rentgen va MRI tasvirlari asosida o‘pka kasalliklarini 96% aniqlik bilan aniqlaydi.Bular biz kuzatgan statistikaning bir qismi.

Sun’iy intelektning quyidagi turlarini biz Pediatriyada qo’llasak bo’ladi:

1. Mashinalarni o‘rganish (Machine Learning, ML): bolalarda kasallik xavfini bashorat qilish.

2. Chuqur o‘rganish (Deep Learning, DL): tasvir va laborator natijalarni tahlil qilish.

3. Kompyuter ko‘rish (Computer Vision, CV): ultratovush, rentgen va MRI tasvirlarini tahlil qilish.

4. Ovozli diagnostika tizimlari (Speech Recognition AI): bolalarning nafas va yurak

tovushlarini analiz qilish.

5. Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP) va chat-botlar: pediatrik maslahat va kuzatuv.

Ammo shuni ham aytish joizki, uning afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklari ham bor. Masalan, ma'lumot yetishmasligi,mutaxassislarni tayyorlash zarurati,huquqiy va axborot xavfsizligi masalalari,yuqori xarajatlar va texnologik baza talab etilishi va boshqalar.Bugungi kunda O'zbekistonda pediatriya sohasida SI tizimlari faqat sinov bosqichida turibdi.Yaqin kelajakda biz ham bu tizimli rejaga o'tish arafasida turibmiz va bu bo'yicha bir qancha loyihlarimiz bor.

Toshkent tibbiyot akademiyasida telemeditsina va laborator natijalarni avtomatik tahlil qiluvchi pilot loyihalar mavjud.

Xorijiy mamlakatlar bilan taqqoslaydigan bo'lsak, AQSHda telemeditsina va avtomatlashtirilgan pediatrik diagnostika tizimlari keng qo'llaniladi.Germaniyda KinderCare-AI platformasi bronxit, anemiya va genetik kasalliklarni avtomatik tahlil qiladi.Rossiya davlatida "MedAI" loyihasi diagnostika xatolarini 23% ga kamaytirganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda sun'iy intelekt tashxis qo'yishda aniqlikni oshiradi, vaqtni tejaydi va shifokorga qaror qabul qilishda yordam beradi. Biroq shuni alohida ta'kidlash lozimki, sun'iy intellekt hech qachon inson — shifokorning o'rnini to'liq bosa olmaydi. Chunki har bir bemor, ayniqsa bola, faqat raqamlar va algoritmlar orqali emas, balki hissiyot, empatiya va insoniy kuzatuv orqali to'liq baholanadi.Shifokor birinchi navbatda bemorni obyektiv tekshiradi, suhbatlashadi, tana tilini, his-tuyg'ularini, o'ziga xos fiziologik javoblarini tahlil qiladi. Bu esa hozircha hech bir algoritm to'liq bajara olmaydigan insoniy fazilatdir. Shu bois SI — bu yordamchi vosita, ammo asosiy qaror va mas'uliyat shifokorga tegishlidir.

Kelajakda tibbiyotda inson va sun'iy intellektning uyg'un hamkorligi — eng to'g'ri yo'ldir. Tibbiyotning maqsadi texnologiyani mutlaq markazga qo'yish emas, balki inson hayotini saqlash va yaxshilashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hinton, G., LeCun, Y. (2022). AI in Medicine: Diagnostic Precision and Personalized Care. Oxford University Press.
2. Stanford Medicine AI Initiative Report (2023). Artificial Intelligence in Healthcare Systems.
3. Harvard Medical School (2023). AI Algorithms for Pediatric Pneumonia Detection.

4. Munich AI Health Center (2023). KinderCare-AI: Pediatric Health Analytics.
5. Министерство здравоохранения РФ (2023). Отчет о применении ИИ в педиатрии.
6. Российский журнал детской медицины (2023). Использование ИИ в диагностике детей.
7. AI in Pediatric Medicine – Deutschland, Springer (2023).

Возрастные особенности хирургического лечения краниосиностоза и оценка необходимости применения коррекционного шлема после открытой реконструкции

Соибов С.Б.[1], Ашрапов Ж.Р.[2],

1.Клинический ординатор- Республиканский специализированный научно-практический медицинский центр нейрохирургии

E-mail: surat8434@gmail.com | ORCID: 0009-0000-2819-2743

2.Доктор мединской наук-Республиканский специализированный научно-практический медицинский центр нейрохирургии,

Alfraganus University

Ключевые слова: краниосиностоз, открытая реконструкция, коррекционный шлем, детский возраст.

Резюме. Данное исследование посвящено проблеме хирургического лечения краниосиностоза у детей раннего возраста. Выявлена зависимость клинико-эстетических результатов лечения от возраста пациента на момент оперативного вмешательства и объёма выполненной открытой реконструкции костей свода черепа. Установлено, что высокая пластичность костной ткани и интенсивный рост черепа в первый год жизни способствуют формированию стабильных и удовлетворительных результатов без необходимости обязательного применения коррекционного шлема в послеоперационном периоде. Проведённый анализ показал, что открытая реконструктивная хирургия обеспечивает высокую эффективность и безопасность лечения различных форм краниосиностоза. *Индивидуализированный подход к послеоперационному ведению пациентов позволяет оптимизировать функциональные и эстетические результаты хирургической коррекции и улучшить качество жизни детей.*

Summary. *This study is devoted to the problem of surgical treatment of craniosynostosis in early childhood. A relationship was identified between clinical and aesthetic outcomes and the patient's age at the time of surgery, as well as the extent of open cranial vault reconstruction. It was established that high bone plasticity and intensive cranial growth during the first year of life contribute to stable and satisfactory postoperative results without the mandatory use of corrective helmet therapy. The analysis demonstrated that open reconstructive surgery is an effective and safe method for treating various forms of craniosynostosis. An individualized approach to postoperative management allows optimization of functional and aesthetic outcomes and improves the quality of life of affected children.*

Rezyume. *Mazkur tadqiqot erta yoshdagi bolalarda kraniosinostozni jarrohlik yo‘li bilan davolash muammosiga bag‘ishlangan. Davolashning klinik va estetik natijalari bemorning operatsiya vaqtidagi yoshi hamda kalla suyagi gumbazi suyaklarini ochiq rekonstruksiya qilish hajmiga bog‘liqligi aniqlangan. Hayotning birinchi yilida kalla suyaklarining yuqori plastiklik xususiyati va bosh miyaning intensiv o‘sishi operatsiyadan keyingi davrda majburiy korreksion shlem qo‘llamasdan turib ham barqaror va qoniqarli natijalarning shakllanishiga xizmat qilishi aniqlangan. O‘tkazilgan tahlil ochiq rekonstruktiv jarrohlik kraniosinostozning turli shakllarini davolashda yuqori samaradorlik va xavfsizlikni ta’minlashini ko‘rsatdi. Bemorlarni operatsiyadan keyingi davrda individual yondashuv asosida olib borish jarrohlik korreksiyasining funksional va estetik natijalarini optimallashtirish hamda bolalarning hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi.*

Актуальность

Краниосиностоз остаётся одной из наиболее значимых проблем детской нейрохирургии и краниофациальной хирургии в связи с его высокой клинической и социальной значимостью [1,4,10]. Преждевременное сращение черепных швов нарушает нормальные закономерности роста черепа и головного мозга, что может приводить не только к выраженным косметическим деформациям, но и к развитию внутричерепной гипертензии, неврологических расстройств и задержки психомоторного развития [1,7]. В условиях раннего возраста данные последствия приобретают особую актуальность, поскольку совпадают с критическими этапами нейроонтогенеза.

В последние десятилетия наблюдается значительный прогресс в хирургическом лечении краниосиностоза. Наряду с минимально инвазивными эндоскопическими методами, широкое применение продолжают находить открытые реконструктивные операции, позволяющие добиться немедленной и выраженной коррекции формы черепа[2,3,8]. Тем не менее вопросы оптимизации послеоперационного ведения пациентов, в частности необходимости применения коррекционных ортезов (шлемов) после открытой реконструкции, остаются недостаточно изученными и дискутабельными.

Ношения шлема является общепринятым стандартом после эндоскопических вмешательств[2], однако её рутинное использование после открытых реконструктивных операций не имеет единых клинических рекомендаций[5,6]. В литературе представлены противоречивые данные относительно её эффективности, особенно с учётом возраста пациента, биомеханических особенностей костной ткани и интенсивности постоперационного роста черепа[4,5]. Отсутствие чётких критериев назначения коррекционного шлема приводит либо к его необоснованному применению, увеличивающему финансовую нагрузку на семью и снижающему комплаентность лечения, либо к риску формирования остаточных краниальных деформаций при отказе от ортезной коррекции[6,9].

Особую значимость данный вопрос приобретает в контексте возрастных особенностей хирургического лечения. У детей первого года жизни высокая пластичность костей черепа и активный рост головного мозга создают благоприятные условия для самопроизвольного ремоделирования после радикальной открытой коррекции [4,7]. В то же время у пациентов старшего возраста снижение адаптационных возможностей костной ткани может ограничивать потенциал спонтанной коррекции, что обуславливает необходимость поиска дополнительных методов оптимизации послеоперационных результатов [5,9].

В связи с этим изучение возрастных факторов, влияющих на исходы открытой реконструкции черепа, а также разработка обоснованных показаний к применению коррекционного шлема после таких вмешательств, представляется актуальной и клинически значимой задачей. Персонифицированный подход к выбору послеоперационной тактики позволит повысить эффективность лечения, улучшить эстетические и функциональные результаты и сформировать более рациональные алгоритмы ведения пациентов с краниосиностозом.

Цель исследования.

Целью настоящего исследования является комплексная оценка влияния возраста пациента на клинико-анатомические и эстетические результаты хирургического лечения краниосиностозов, а также определение целесообразности применения коррекционного шлема в послеоперационном периоде после хиургической реконструкции свода черепа.

Материалы и методы**.**

